

**O'SPIRIN YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI KASBIY SHAKLLANISHIDA TURLI  
MOTIVLARNING O'RNI**

Rustamova Go'zal Xolmuhammad qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasbga yo'naltirishning psixologik obyekti hamda muammolari, "Kasbiy psixologiya"da talabalar psixologiyasining mohiyati, uning metodlari, qonuniyatlarini va tamoyillari, shaxsnинг bilish jarayonlari, individual-tipologik xususiyatlari, faoliyati, muloqot va shaxslararo munosabatlari haqida atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** talaba, kasb, mehnat imkoniyati, shaxsni psixologik himoyalash, kasbiy tashxis, aksentuatsiya, motivlar

**Abstract:** This article covers in detail the psychological object and problems of professional orientation, the essence of student psychology in "Professional Psychology", its methods, laws and principles, cognitive processes of the individual, individual-typological characteristics, activities, communication and interpersonal relationships

**Ключевые слова:** студент, профессия, возможность трудоустройства, психологическая защита личности, профессиональный диагноз, акцентуация, мотивы

**Аннотация:** В данной статье подробно рассмотрены психологический объект и проблемы профориентации, сущность психологии учащихся в "психологии труда", ее методы, законы и принципы, познавательные процессы личности, индивидуально-типологические особенности, деятельность, общение и межличностные отношения

**Keywords:** student, profession, employment opportunity, psychological protection of the individual, professional diagnosis, accentuation, motives

## KIRISH

Bugungi islohotlar davri o'qitishning samarali metodlarini yaratishni, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishni, inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning yetakchiliginini ta'minlashni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-tuyg'ularini e'tiborga olib, ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'lif sohasiga ham milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha ta'riflagan edilar: "Ta'lif O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzlucksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi" [1 ].

Kasb tanlashga yo'llash - umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodning kasbiy tiklanishi, tabiat in'om etgan

(tug'ma) layoqatlarini rivojlantirishga yordamlashish, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta'lif turini tanlash ishlarida, turli tuman malakali kasb mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarda jamiyatning g'amxo'rliги sifatida namoyon bo'ladi. Kasb tanlashga yo'llashning asosiy maqsadi - yosh avlodni ongli va mustaqil holda ta'lif yo'nalishini tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.[2]

Kasb tanlashga yo'llash quyidagi ikki asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan:

1.mehnat imkoniyatlarini oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlash;

2. shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, chunki o'z qiziqishlari, moyillik va imkoniyatlariga mos kelgan kasbni tanlangan inson ham kasbiy, ham moddiy jihatdan tezroq uni o'zlashtiradi va sezilarli natijalarga erishadi.[3]

Kasb tanlashga yo'llash ishlarining asosiy ob'ekti:

1.	umumiy o'rta ta'lif maktablarining 1 - 11 sinf o'quvchilari;
2.	oliy o'quv yurtlari talabalarini va kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari;
3.	ishdan bo'shashi kutilayotganlar;
4.	ish qobiliyati cheklangan shaxslar.

Mingdan ziyod kasblar bor, lekin muayyan mehnat turiga individual moyillik bilan unga bo'lgan qobiliyat va uning ijtimoiy ahamiyatiga yuqori baho berish birga qo'shilib ketgan vaqtdagina chin dildan tanlangan kasbgina kishiga ma'naviy qoniqish va jamiyatga foyda keltiradi. O'spirinlar uchun xarakterli xususiyat — kasblarga keskin tanlab munosabatda bo'lishdir. Ular ayrim kasblarni yuksak baholaydilar, o'quvchilarning ko'z o'ngida bu kasblarning ijtimoiy mavqeい yuksakdir. Boshqa kasblarning ijtimoiy mavqeい juda pastdir.

Kasbiy niyatlarining barqarorligini o'rganish yuzasidan N.I.Krilov o'tkazgan tekshirish shuni ko'rsatdiki, hatto o'z maqsadlarini amalga oshirib, oliy o'quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko'plari o'zlarining kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar.[4] Bunga sabab yoshlarni mazkur oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan bu kasbning haqiqiy, amaliy mazmuni o'rtasidagi o'zaro nomuvofiqlikdir. O'zining kasb tanlash bo'yicha taqdirini tasodifan hal etish murakkab kechinmalarga, tanlangan kasbi sohasida ikkilanishlarga, og'ir ichki nizolarga, stresslarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qizlar uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. [5]

Ko'pdan ko'p materiallar muktab o'quvchilarida o'zlarining kelajakdagi kasblariga qiziqishni tarbiyalashda muktab va o'qituvchilarning ma'lum darajada rol o'ynashini ko'rsatadi. Bir qancha tadqiqotlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, so'rab chiqilgan o'quvchilarning 40 — 50% kelajakdagi kasbni tanlashga biror o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishlari sabab bo'lganligini aytishadi. Ko'pgina o'quvchilar xalq xo'jaligi uchun muhim bo'lgan kasblarni tanlaydilar, bunga Vatanga foyda keltirish istagini sabab qilib ko'rsatadilar, lekin bu kasblarni o'zlarining individual xususiyatlariga, qobiliyatlariga muvofiq keladi, deb hisoblamaydilar. Ilk o'spirinlarning ko'pchiligi kasb tanlashga motiv qilib o'z qobiliyatlarini ko'rsatishadilar. Ko'p o'quvchilar esa oilaviy an'analarning

mavjudligini, moddiy-maishiy ta'minlanganlik darajasini, do'stlar va o'rtoqlaridan namuna olganligini motiv qilib ko'rsatib o'tadilar. Ayrim hollarda ish joyi yoki oliy o'quv yurtining yashash joyiga yaqinligi va boshqalar motiv bo'lgan.

XULOSA. O'quvchilarni ta'lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to`g`ri kasb-hunar tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, didaktik, tashkilotchilik, pertseptiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo`lishi, fan asoslarini turmush bilan bog`lab o`rganilishi, to`garak va qo`shimcha, yordamchi kurslarni oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to`g`risida ma'ruzalar o`qilishi, suhbatlar, munozaralar o`tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko`rgazmalari tashkil qilishlari muhim hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg`or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, turli davra suhbatlari, kechalar va ma'ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu tadbirlar o`quvchining shu kasbga bo`lgan qiziqishini, intilishini yanada qat'iy lashishini vujudga keltiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
2. Andreeva G. M. Sotsialnaya psixologiya. – M., 1990.
3. Andrianova V. Ye. Deyatelnost cheloveka v sistemax upravleniya. – M., 1994.
- Arifxodjaeva I. X. Muxandis xodimlar psixologiyasi. – T., 2007
4. Belinskaya Y e .P., Tixomandriskaya O.A. Sotsialnaya psixologiya lichnosti. – M., 2001
5. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o 'quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosi. Science and Education, 5(5), 331-335.
6. Rahmatullayeva, Z. O. (2021). DEVELOPMENT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PRESCHOOL CHILDREN. Экономика и социум, (5-1 (84)), 414-417.